

---

## «E-aktiv» avtomatlashtirilgan axborot tizimi



«E-aktiv» avtomatlashtirilgan axborot tizimi

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabr kunidagi 595-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tadbirkorlarga yanada qo‘laylik yaratish hamda mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyotni cheklash maqsadida “E-aktiv”-tovar moddiy resurslar harakatini hisobga olishning elektron tizimi amaliyotga joriy etildi.

Mazkur avtomatlashtirilgan axborot tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

Mahsulotlar kirimi va qoldig‘i hisobini onlayn yuritish va kuzatib borish;

**Tovarlar uchun yaratilgan bir yoki bir nechta elektron ombor yaratish;**

**Tovarlarni masofadan turib elektron ravishda ombordan omborga olib o‘tish;**

**Kirim qilinmagan tovarlarni sotish bo‘yicha EHF rasmiylashtirish holatlariga chek qo‘yish imkonini beradi.**

**Shuningdek EHFlarda MXIKlarning yagona elektron milliy katalogiga muvofiqligini hamda shartnomalar Yagona elektron shartnomalarning axborot portalida majburiy tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlaydi.**

Shuningdek, “E-aktiv” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan hozirgi kunda 24 ta korporativ va 7 ta byudjet buyurmachisi test rejimida foylanmoqda. Avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish uchun [my3.soliq.uz](http://my3.soliq.uz) sayti orqali amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish **qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar** va ustav **jang‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq miqdorda bo‘lgan** yuridik shaxslar uchun 2022-yil 1-yanvardan quyidagilar majburiy hisoblanadi:

- 
- Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar tomonidan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy 2 resurslarni hisobga olish (sotib olish (qurish), ishga tushirish, qayta baholash, tasarruf etish) hamda o‘z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish va kamaytirish bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni davlat soliq organlarining «E-aktiv» avtomatlashtirilgan axborot tizimida aks

---

ettirish;

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xo'jalik faoliyati davomida tovar-moddiy zaxiralar saqlash muddati tugagach yaroqsizligi, jismonan va ma'nan eskirganligi natijasida yo'q qilinganda va kamomad, yo'qotish yoki shikastlanish (sinish, bo'linish) sababli hisobdan chiqarilganda uch ish kunidan kechiktirmasdan **«E-aktiv» avtomatlashtirilgan axborot tizimida** aks ettirish.

2022-yil 1-iyulgacha "E-aktiv" AATdan lozim darajada foydalanmaganlik uchun soliq to'lovchilarga ta'sir choralari ko'rilmasligini ma'lum qilamiz. Hurmatli So'x tumanida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi sizlarga mazkur avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish jarayonida yuzaga kelgan sizga tushunarsiz yoki murakkab bo'lgan holatlarda sizga ko'maklashishdan doimo mamnunligini bildirib, So'x tuman davlat soliq inspeksiyasining "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash" sho'basi xodimlariga murojaat qilishingiz mumkinligini ma'lum qiladi. Unutmang! Davlat soliq xizmati organlari insofli soliq to'lovchining ishonchli hamkori!

**Zaylidinov Zayliddin Nuridinzoda - So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi**

**"Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash" sho'basi**

**soliq bo'yicha inspektori**

2022-02-16 08:53:51